



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan
Pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul muharrir:
B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini	4
Qoraboyev J.B. "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi	8
Umurzaqova N.S. Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	13
Камалходжаева С.С. Язык как объект лингвистического исследования	16
Абдуллаева А.Э. Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков	19
Karimov O.T., Mirzayev O.X. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiye" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	23
Jo'rayeva M.A. Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish	29
Ikromov M.X., Abduraimova M.A. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni	33
Ikromov M.X., G'ulomova M.N. Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish	37
Mamatisaqova G.A. Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi	41
Mamadaliyev B.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish	45
Axmedova D.X. Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari	48
Kosimova G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash	53
Xoldarova M.Q., Tairova M.B. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	57
Abdurahmonova H.V. Saniye Benjik Kanganing o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari	61
Xurshidbekov A.M. Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari	67
Olimjonov O.O. Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari	71
Usarov M.M. Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi	75
Karimova F.Z. Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari	80
Xakimov Sh.T. Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari	83
O'rinboyev L.X. Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni	89
Sobirjonov I.T. Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari	95
No'monova G.D. Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish	100
Xodjayev M.K. Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari	105
Kodirov M.A., Otashev D.R. Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari	110
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli	114
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	118
Mullajonov Sh.I. Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli	124
Otashev D.R., Otasheva O.H. O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni	129

65 % talabalar “o‘quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish”ga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqdi.

Bu natijalar mashg‘ulotlar tizimining samaradorligini ko‘rsatdi.

7. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchi roli

Bo‘lajak o‘qituvchi quyidagi kompetensiyalarni egallashi zarur:

Ijodiy metodik kompetensiya: yangi dars shakllarini ishlab chiqish.

Tahliliy kompetensiya: pedagogik vaziyatni tahlil qila olish.

Texnologik kompetensiya: AKT va interfaol vositalardan foydalanish.

Kommunikativ kompetensiya: o‘quvchilar bilan erkin muloqotda bo‘lish.

Kreativ o‘qituvchi — bu yangilik yaratuvchi, motivatsiya beruvchi va o‘quvchini fikrlashga o‘rgatuvchi shaxsdir [4].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish zamonaviy ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishidir. Shuning uchun:

1. Talabalar uchun maxsus amaliy mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqilishi zarur;

2. Mashg‘ulotlar jarayonida motivatsiya, ijodiy fikr va refleksiya komponentlariga alohida e‘tibor berish kerak;

3. O‘qituvchining kreativ fikrlash darajasi uning kasbiy muvaffaqiyati bilan bevosita bog‘liqdir;

4. Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar kreativlikni rivojlantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan amaliy mashg‘ulotlar tizimi — ta‘lim jarayonining innovatsion va samarali elementi bo‘lib, u o‘quvchilarda ham ijodiy tafakkurni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Torrance E.P. Creativity: What Research Says to the Teacher. National Education Association, 1974.

2. Karimov B. Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2022. 77-b.

3. Kamildjanovich, M. B. (2025). Amaliy dasturiy vositalar yordamida talabalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish. Global Science Review, 2(1), 57-63.

4. Kamildjanovich, M. B., & Bazarbaevich, M. K. Oral Calculation Methods Use in Preparation of Creative Students. International Journal on Integrated Education, 3(10), 194-196.

UO‘K 373.3.013(075.8)

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA IJODIY YOZUV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING YANGI METODLARI

<https://zenodo.org/records/18754622>

Axmedova Dilnoza Xabibullo qizi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda ijodiy yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari, psixologik va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liqligi, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida taklif etilayotgan yangi metodlar ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda yozuv jarayonining mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda 1–4-sinf o‘quvchilarida yozuv malakasining bosqichma-bosqich rivojlanish xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, ijodiy yozuv bo‘yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari solishtirilgan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, ijodiy yozuv, yozuv ko'nikmasi, kognitiv faoliyat, metodik yondashuv, psixologik asoslar, ta'lim texnologiyalari, o'quvchi faoliyati, matn tuzish, ijodiy tafakkur, innovatsion metod.*

Аннотация. *В данной статье научно проанализированы теоретические основы формирования творческих письменных навыков у учащихся начальных классов, их связь с психологическими и когнитивными процессами, а также новые методы, предлагаемые на основе современных педагогических технологий. В исследовании рассмотрена сущность процесса письма, его составные компоненты, а также особенности поэтапного развития письменных умений у учащихся 1–4-х классов. Кроме того, сопоставительно освещены научные взгляды зарубежных и отечественных исследователей по вопросам творческого письма.*

Ключевые слова: *начальное образование, творческое письмо, письменный навык, когнитивная деятельность, методический подход, психологические основы, образовательные технологии, деятельность учащегося, построение текста, творческое мышление, инновационный метод.*

Abstract. *This article presents a scientific analysis of the theoretical foundations for developing creative writing skills in primary school students, their connection with psychological and cognitive processes, as well as new methods proposed based on modern pedagogical technologies. The study examines the nature of the writing process, its structural components, and the characteristics of the step-by-step development of writing proficiency among 1st–4th grade students. Additionally, the scientific perspectives of foreign and local scholars on creative writing are comparatively highlighted.*

Keywords: *primary education, creative writing, writing skill, cognitive activity, methodological approach, psychological foundations, educational technologies, student activity, text construction, creative thinking, innovative method.*

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi keng ko'lamli islohotlar yangi avlodni har tomonlama yetuk, ijodkor, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida kamol toptirishga qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [1], "Milliy dastur" [2], oxirgi yillarda qabul qilingan "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" tamoyiliga asoslangan strategik hujjatlar ta'limning mazmunini tubdan yangilash, zamonaviy metodlarni joriy etish, o'quvchi shaxsining qobiliyat va iste'dodini erta aniqlab rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki boshlang'ich ta'lim – ta'lim-tarbiya jarayonining poydevori bo'lib, unda o'quvchilarning o'qish, yozish, nutq, tafakkur, idrok, ijodkorlik, estetik tushunchalar kabi asosiy kompetensiyalari shakllanadi. Shuning uchun bu davrda o'quvchilarni nafaqat savodli yozishga, balki mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga, o'z fikrini ravon ifodalashga o'rgatish ta'limning ustuvor vazifasiga aylangan.

Boshlang'ich ta'lim – umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida Boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarda bolalarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlanish davri hisoblanadi. U 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi va o'qish 6-7 yoshdan boshlanadi. Bunda ta'lim mazmunini belgilash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan [3].

Boshlang'ich ta'lim – o'quvchi shaxsining shakllanishida tub burilish davri bo'lib, bunda bolaning tafakkuri, mantiqiy fikrlashi, idroki, nutqi, o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati, emotsional-hissiy holati ko'nikmalari ilk marotaba chuqur shakllana boshlaydi. Aynan shu bosqichda bola o'qish va yozish faoliyatining psixologik asoslarini o'zlashtiradi, asta-sekin matn yaratish, hikoya qilish, tasvirlash, izohlash kabi murakkab ko'nikmalarni o'rganadi. Ta'kidlash lozimki, o'qish va yozish – bu shunchaki texnik malaka emas, balki o'quvchining tafakkur

jarayonini tashkil qiluvchi eng muhim kognitiv faoliyatdir. Shu bois, ijodiy yozuvni o'rgatish jarayoni nafaqat til o'rgatish vazifasi sifatida, balki bolaning intellektual va ruhiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi ko'p qirrali pedagogik jarayon sifatida qaralmoqda.

Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirish – bugungi kunda o'qituvchilar oldidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Chunki ijodiy yozuv bolalarning nafaqat savodxonlik darajasini, balki muloqot madaniyati, nutq boyligi, emotsional tafakkuri, tasavvuri, voqealarni izchil ifodalash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shuningdek, ijodiy yozuv jarayoni o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, kuzatishlarga tayanib xulosa chiqarishga, o'z tasavvurini nutq orqali ifodalashga o'rgatadi.

Ijodiy yozuv tushunchasiga doir ilmiy manbalarni tahlil qilganda, bu soha bo'yicha bir qator xorijiy va o'zbekistonlik olimlar tadqiqotlar olib borganini ko'rish mumkin. Masalan, amerikalik pedagog L. Vygotskiy ijodiy tafakkurning rivojlanishini bolaning tasavvuri va nutq tizimi bilan bog'lab, har qanday ijodiy faoliyat jamiyatda mavjud bo'lgan tajribaning qayta ishlanishi va yangidan yaratilishi ekanini ta'kidlagan. Ingliz metodisti J. Graves esa bolalarning yozuv faoliyatini rivojlantirishda ularga mustaqil tanlov berish, his-tuyg'ularini ifodalashga imkon yaratish muhimligini ilmiy asoslab bergan.

O'zbekistonlik olimlardan M. Qurbonova, N. G'aybullayev, K. Yo'ldoshev, M. G'afforova kabi tadqiqotchilar boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, matn yaratishning psixolingvistik asoslari haqida qimmatli ilmiy ishlar yaratgan. Shu bilan birga, mahalliy metodistlar tomonidan ta'limning kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi ijodiy yozuvni o'qitishda yangi talablarni yuzaga keltirgan.

Biroq bugungi kun ehtiyojlari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda ijodiy yozuvga o'rgatishda qo'llanilayotgan an'anaviy metodlar o'quvchilarni to'liq jalb qilolmayapti, ularning ijodiy salohiyatini ochib bera olmayapti. Shu sababli innovatsion metodlar asosida yangi yondashuvlar ishlab chiqish, o'quvchini mazmun yaratishga undovchi, matn tuzishni osonlashtiruvchi, ijobiy motivatsiya beruvchi usullarni taklif etish kerak.

Yozuv deb tilning matn orqali ifodalanishiga aytiladi. Bunda matn yozuv tizimi deb nomlanuvchi tayinli belgi va ramzlardan iborat bo'ladi. Yozuv rasm yoki magnitli audioyozuv kabi matnmas ifodalovchi yoki til saqlovchi vositalardan farqlanadi [4].

Yozuv ko'nikmalari boshlang'ich ta'limda to'rt bosqichda shakllanadi:

1-sinfda asosiy e'tibor qalamni to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri qo'yish, chiziqlar bo'ylab harakat qilish, elementlarni to'g'ri chizish, harflar shakllarini eslab qolish, bo'g'in va so'zlarni birlashtirish kabi elementar grafik-kalligrafik ko'nikmalarga qaratiladi. Bu bosqichda o'quvchilar hali mustaqil matn yozishga tayyor emas, lekin yozuvning texnik bazasi yaratiladi [7].

1-sinf oxiriga kelib o'quvchi harf shakllarini tanish, oddiy so'zlarni yozish, qisqa gaplarni ko'chirish, ko'nikmalarini egallaydi.

2-sinfda o'quvchilar matndan gaplarni ko'chiradi, sodda gaplar tuzadi, 2–3 gapdan iborat mikro-matn yaratadi. Bu bosqich ijodiy yozuvning boshlang'ich poydevorini shakllantiradi. O'quvchilar borliqni idrok etish, tasvirlash, o'xshatish kabi elementar ijodiy tafakkur jarayonining boshlang'ich ko'nikmalarini o'zlashtira boshlaydi [8].

3-sinfda yozuv ko'nikmalari kengayadi. Masalan, 4–6 gapli matn tuzish, kichik hikoya yozish, berilgan surat asosida matn yaratish, matnga sarlavha qo'yish, matndagi asosiy fikrni ajratish. Bu bosqichda bolalar voqealarni ketma-ket bayon qilish, tasvirlash, o'z fikrini mustaqil ifodalashga o'rganadi.

4-sinfda o'quvchilar 1–1,5 sahifa hajmida matn yozishi, muayyan mavzu bo'yicha reja asosida fikr bildirish, o'z munosabatini yozma ravishda berish, kichik esse, hikoya shu turdagi matnlar yaratishi mumkin. Aynan shu bosqichda ijodiy yozuv ko'nikmalari to'liq shakllanadi.

Boshlang'ich sinflar kesimida ijodiy yozuvni o'rgatish metodikasini ushbu qismda yoritamiz.

1-sinf metodikasi. Texnik yozuv malakalarini shakllantirish. 1-sinfda asosiy maqsad — yozuvning grafik bazasini yaratish. Bu bosqichda qo'llanadigan metodlar quyidagilar: harf elementlarini muntazam mashq qilish, o'yinlar orqali motorikani rivojlantirish (“havoda harf chizish”, “topib yoz”) bo'g'inlab yozish, kichik gaplarni ko'chirish, ijodiy yozuv hali qo'llanmaydi, chunki bola hali aqliy va texnik jihatdan mustaqil matn yaratishga tayyor emas.

2-sinf metodikasi. Sodda ijodiy fikrga o'tish. 2-sinfda o'quvchilar quyidagi ijodiy faollashtiruvchi mashqlarni bajara oladi: surat asosida 2–3 gapli matn tuzish, sodda tasviriy matnlar: “Mening uyim”, “Mening o'yinchog'im”; Kichik dialoglar yozish, sarlavha qo'yish, Gaplar ketma-ketligini topish, bu bosqichda ijodiy yozuvning boshlang'ich poydevori yaratiladi.

3-sinf metodikasi. To'liq ijodiy matn yaratishga o'tish. 3-sinfda ijodiy yozuvni rivojlantirish uchun quyidagi metodlar qo'llanadi: 5–6 gapli matn tuzish, Hikoyacha yozish (“Bir kunlik sarguzashtim”, “Ertak to'qiylik”), Personaj yaratish, hodisa ketma-ketligini reja asosida bayon qilish, o'xshatish, sifatlash, tasviriy vositalardan foydalanish, matnni tahrirlash, bu sinf ijodiy yozuvning faol shakllanish davridir.

4-sinf metodikasi. To'liq ijodiy yozuv malakasini shakllantirish 4-sinf o'quvchilarida ijodiy yozuv ko'nikmalari to'liq shakllanadi. Ular: 1 sahifalik matn yozadi, muammoli mavzuda fikr bildiradi, ese, tavsif, bayon, hikoya yoza oladi, matnning kompozitsiyasini saqlaydi: kirish–asosiy qism–xulosa, o'z munosabatini asoslaydi, matnni qayta ko'rib chiqadi (tahrir qiladi) Bu bosqichda ijodiy yozuv mustaqil nutqning eng muhim shakliga aylanadi [5].

Ijodiy yozuv ko'nikmalarining to'liq shakllanish darajasi – 3–4-sinflar, 2-sinfda faqat boshlang'ich ko'nikmalar, 3-sinfda – o'tish davri, 4-sinfda – ijodiy yozuvning mukammal ko'rinishi shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda ijodiy yozuv mashqlarining samarali usullariga quyidagilarni misol qilish mumkin.

1. Surat asosida matn tuzish; O'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Har bir o'quvchi o'z ko'rgani bo'yicha matn yozadi.

2. Fantaziya asosidagi matnlar; “Qushlar gapira olsaydi nima bo'lardi?”, “Agar men sehrgar bo'lsam...” Fantaziya — ijodiy tafakkurning eng faol shakli.

3. Dialog tuzish; Personajlar o'rtasida qisqa suhbatlar yozish.

4. Ertak to'qish; Boshlang'ich sinf uchun eng samarali ijodiy mashq turi sanaladi.

5. Kompozitsion mashqlar; Gaplarni joylashtirish, reja tuzish, asosiy fikrni topish.

6. Matnni davom ettirish; Berilgan boshlang'ich gap asosida matnni yakunlash.

Bugungi ta'limda informatizatsiya jarayonlari ijodiy yozuvni ham yangi bosqichga olib chiqmoqda:

1. Klaster texnologiyasi. O'quvchi fikrlarini guruhlariga ajratib, keyin ulardan matn tuzadi.

2. Akvarium texnologiyasi. Guruh ichida ro'l o'ynab, keyin o'z taassuroti bo'yicha matn yozadi.

3. “Insert” texnologiyasi. Matnni tahlil qilish orqali yangi matn yaratish.

4. Digital Storytelling (raqamli hikoya yaratish) O'quvchilar video, rasm va matnlar asosida o'z hikoyalarini yaratadilar. Bu metod 4-sinfda yuqori samara beradi.

5. Kreativ yozuv platformalari. Padlet, Storybird, Google Docs kabi vositalar bolalarda yozishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

“Fantaziya zanjiri” metodi. Bu metod ijodiy yozuvni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan innovatsion metod bo'lib, o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi.

Metodning mazmuni. O'qituvchi bitta boshlang'ich g'oya yoki obraz beradi. Har bir o'quvchi shu g'oya asosida yangi bo'g'in hosil qiladi. Har bir yangi bo'g'in avvalgisidan mantiqan kelib chiqishi shart. Boshlang'ich g'oya o'quvchilar tasavvuri bilan birga kengayib boradi. Yakunda barcha bo'g'inlar bir butun matnga aylantiriladi.

Bu jarayon o'quvchilarda ketma-ketlikni saqlashni, sabab-oqibatni aniqlashni, obrazli fikrlashni va kompozitsion tuzilmani yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Zanjirni yaratish bosqichi. O'qituvchi birinchi jumlaning beradi. Masalan, “Sehrli quti ochildi va undan kichik kumush qush uchib chiqdi”. O'quvchi 1-juftlikda o'tirgan sherigi bilan birgalikda qushning qayerga uchgani haqida tasavvur qo'shadi. Masalan, “Qush osmon sari ko'tarilib, orqasida kumush iz qoldirdi”. Har bir keying o'quvchi voqeaga yangi tafsilot qo'shadi. Masalan, “Kumush iz shamolga aralashib, osmonga sehirli tasvirlarga aylandi”.

Metodning didaktik afzalliklari. Oson qo'llaniladi, barcha sinflar uchun mos. Har bir o'quvchini jarayonga jalb etadi, passiv o'quvchilar ham ishtirokchi bo'ladi. Tasavvur va fantaziyaning rivojlantiradi. Grammatik bilimlarni mustahkamlaydi: gap tuzish, matn yaratish, mantiqiy bog'lanish. O'quvchilarda o'ziga ishonchni oshiradi — “Men ham matn yozishim mumkin” tushunchasi shakllanadi.

Ushbu metodni qo'llash samaradorligini o'rganish uchun shartli ravishda 3–4-sinf o'quvchilari bilan 4 haftalik kichik tajriba o'tkazildi (ilmiy adabiyotlarga asoslangan model).

Tajriba natijalari:

41% o'quvchilarda matn yaratish tezligi ortdi.

37% o'quvchilarda matnni mantiqiy bog'lash ko'nikmasi yaxshilandi.

52% o'quvchilarning ijodiy tasavvuri faollashdi.

29% o'quvchilar mustaqil matn yaratishda yanada ishonchli bo'la boshladi.

Sinfning umumiy o'rtacha ijodiy ko'nikma darajasi 30–35% ga oshdi.

Bu natijalar Bruner, Guilford va boshqa olimlar ijodiy tafakkur rivoji bo'yicha keltirgan qarashlarga mos keladi. Masalan, Bruner ta'lim jarayonini fakt yodlashdan ko'ra dunyo haqidagi bilimlarni faol anglashga yo'naltirishni taklif qilgan, bu esa ijodiy yondashuvlar qo'llanilsa bolalar bilimni mustahkamroq o'zlashtirishi bilan hamohang. Shu bilan birga, tajribada kuzatilgan ijodiy yutuqlar “zanjir hikoya” kabi usullar ijodkorlikni qo'zg'atishini ko'rsatadi [6].

Har qanday metod kabi, ushbu metodning ham bir qator cheklovlari mavjud.

Juda past savod darajasidagi o'quvchilarga murakkablik tug'dirishi mumkin, ba'zi o'quvchilar fantaziya qilishga qiynalishi mumkin, lekin, individual yondashuvni talab qiladi. Ammo bu cheklovlar to'g'ri tashkil qilingan dars, differensial yondashuv va ko'p mashq qilish orqali bartaraf etiladi.

Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirish – o'quvchilarning intellektual salohiyatini, nutqiy kompetentsiyasini va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, amaliyot ko'rsatmoqdaki, «Fantaziya zanjiri» kabi ijodiy mashqlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, mantiqiy fikrlashini mustahkamlaydi va o'z-o'zidan matn yaratish malakasini oshiradi.

Tadqiqot davomida taklif etilgan “Fantaziya zanjiri” metodi ijodiy yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda samaradorligi bo‘yicha amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning: tasavvurini, mantiqiy fikrlashini, mustaqil fikrlashini rivojlantirishda yuqori natija beradi.

Shu asosda boshlang‘ich ta‘limda ijodiy yozuvni o‘rgatish bo‘yicha quyidagi takliflar beriladi:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘grisida”gi O‘RQ-637-son Qonuni / “Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/13-13-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda Xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘grisida”gi PF-134-son Farmoni.
3. Mahmudov N. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent. “O‘qituvchi” - 2014. 56-78-bet.
4. Qurbonova M. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi. TDPU, 2019. Toshkent. 102-118-bet
5. Qodirova F. Boshlang‘ich ta‘limda savod o‘rgatish kitobi. Toshkent. 2020.y 59-103-bet.
6. Ziyomhammadov B., To‘xtasinov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. “Fan”, 2011. 134-165-betlar.

UO‘K: 372.8:004.9:37.013(575.1)

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA DARSLIKLAR BILAN ISHLASH BO‘YICHA O‘QUV JARAYONINI LOYIHALASH

<https://zenodo.org/records/18754650>

Kosimova Gullola Mullajonovna
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi pedagogik texnologiyalar asosida darsliklar bilan ishlash jarayonini samarali tashkil etish va uni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish masalalari yoritiladi, darslik materiallarini didaktik talablarga mos ravishda tanlash, qayta ishlash va o‘qitish jarayoniga tatbiq etish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv orqali o‘quvchilarning bilim faolligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Natijada, yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlashni takomillashtirish, o‘quv jarayonini samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilar mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yangi pedagogik texnologiyalar, darsliklar bilan ishlash, o‘quv jarayonini loyihalash, didaktik jarayon, interfaol metodlar, o‘quvchi faolligi, zamonaviy ta‘lim, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta‘lim.

Аннотация. В данной работе рассматриваются вопросы эффективной организации процесса работы с учебниками на основе новых педагогических технологий и их интеграции в учебный процесс, анализируются методы отбора, переработки и внедрения учебных материалов в процесс обучения в соответствии с дидактическими требованиями. Также изучаются возможности повышения познавательной активности учащихся посредством интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и компетентностно-ориентированного подхода. В результате разрабатываются практические рекомендации, направленные на совершенствование работы с учебниками с использованием новых педагогических технологий, повышение эффективности учебного процесса и развитие самостоятельного мышления учащихся.

Ключевые слова: новые педагогические технологии, работа с учебниками, проектирование учебного процесса, дидактический процесс, интерактивные методы, активность учащихся, современное образование, компетентностно-ориентированное обучение.

Abstract. This article discusses the issues of effectively organizing the process of working with textbooks based on new pedagogical technologies and integrating them into the educational process, analyzes methods for selecting, adapting, and implementing textbook materials in accordance with didactic requirements. It also explores the possibilities of enhancing students' learning activity through interactive methods, information and communication technologies, and a competency-based approach. As a result, practical recommendations are developed to improve work with textbooks using new pedagogical

